ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Folklorda til va madaniyat aloqadorligi (o‘zbek xalq ertaklari misolida) 75

МУНДАРИЖА

АМОНТУРДИЕВА ШОИРА РАВШАНОВНА
Диний услуб фразеологияси 80

OZOTBOYEVA MAXFUZA RAVSHAN QIZI
Komil Avazning “Qo‘nalg‘a” asarida dialektal diskursiv shaxsning lingvopragmatik talqini 86

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
“Devonu lug‘otit-turk” oziq-ovqat nomlarini qiyosiy o‘rganish uchun asos sifatida..... 90

KO‘CHIMOVA SHAHLO NURIDDIN QIZI
Yuridik matnlarning ekstralingvistik omillari va ularning mazmun shakllanishidagi o‘rni..... 93

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ, НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА
Икки дарё оқиб ўтди..... 97

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 103

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация
тюркского эпоса в XXI веке… 105

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 109

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской
малой прозы в постсоветскую эпоху… 112

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 115

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik..... 119

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati… 122

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 126

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 129

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 131

FERUZA SULTONQULOVA
Usmon Azim she’riyatida Boysun yetakchi motiv sifatida… 134

KIRGIZOVA GULNOZA MAMADALIYEVNA
Iqbol Mirzo she’riyatida fikr va tuyg‘u uyg‘unligi… 137

QAHHAROVA DILAFRO‘Z ABDUG‘AFFOROVNA
Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar… 140

MAMATQULOV BOTIR
Nazar Eshonqul hikoyalarida shaxs fojiasi talqini..... 143

ABDUNAZAROV O‘TKIR
Bolalar adabiyotida ijodiy izlanishlar (Nosir Fozilov asarlari misolida) 149

TA’LIM

NODIRA JALOLOVA
Kommunikatsion menejment tushunchasi va uning funksiyalari 155

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BOLALAR ADABIYOTIDA IJODIY IZLANISHLAR
(NOSIR FOZILOV ASARLARI MISOLIDA)

Abdunazarov O'tkir
O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi
"Tillarni o'rganish" kafedrasi mudiri (PhD)
Tel:+99899 429 45 51
utkirabdunazarov86@gmail.com

Yozuvchi qaysi janrda, qaysi yoshdagi shaxsni badiiy qahramon darajsiga ko'tarishidan qat'iy nazar, ularning davr va muhitdagi o'rnini ko'rsatishga, xarakter qirralarini badiiy talqin qilishga, ya'ni xarakerlar yaratishga jazm qiladiki, bu esa o'z navbatida zamondosh qahramonlar obrazini yaratish imkonini kengaytiradi.

Darhaqiqat, Nosir Fozilov ijodidan o'rin olgan bolalar ruhiyatiga xos asarlarida ham, xuddi shu poetik tasvir xususiyatini kuzatish mumkin. Chunki bunday xarakterdagi asarlar sodda ravon tilda bayon etilishidan qat'iy nazar, hayot voqeligini umumnlshtirishda obrazlar olamini ham talqin va tasvir xusisiyatiga singdirib yuboradi. Bolalar pisxologiyasini, uning xarakter qirralarini yoritish ham ijodkordan, hayot voqeligini badiiylashtirishda juda katta badiiy mahorat talab etadi. Shuning uchun Nosir fozilov asarlarida har bir kichik elementlarda ham, insonning turfa xil xislatlari tasvirga singidirib yuborilgan.

Masalan, adibning "Quyoncha" hikoyasini oladigan bo'lsak, ushbu hikoyada bahor fasli tasviri beriladi. Mirtoji bobo bahor faslidagi qizg'in ish tufali uyiga bora olmaydi. Nabiralari Bektosh bilan Hoshim maktabdan qaytib, bobolariga ovqat olib borishadi. Bolalar hali yosh bo'lganlari uchun shoshilmay, atrofning go'zalligidan bahra olib yurib borishardi. Shunda Bektosh uchib yurgan zog'chalarni ko'rib, ularga kesak otadi. Bir otgan kesagi shudgor chekkasidagi qalin olabo'taga kelib tushadi va u yerdan kichkina quyoncha sakrab chiqadi. "Bolalar qiyqirishib o'zlarini quyonchaga otishdi. Bechora quyoncha nima qilarini bilmay olabo`tadan bir-ikki aylandi. Keyin shoshganidan haydalgan yerga qarab qochdi. Bektosh uch-to'rt hatlashdayoq unga yetib, tutib oldi. Orqasidan Hoshim halloslab yetib kelganida, Bektosh quyonchani bag'riga bosdi".

Ular shu zaylda bobolarining oldiga yetib borishadi. Ular yo'lda topib olgan quyonchalarini ko'rsatishganida bobosi uning hali kichkinaligini, o'z uyiga olib borib qo'yishlarini aytadi. Har ikki bola quyonchani topib olgan yerlariga qo'yib kelish uchun yo'lga tushishadi. Bobo esa ular ketgach, ishtaha bilan tovoqning og'zini ochadi, bolalarga to'g'ri yo'lni ko'rsatganligidan baxtiyor bo'ladi.

Adabiyotni o'zining qismati deb bilgan haqiqiy yozuvchi va shoirlar barcha davr va zamonlarda ham inson va uning ma'naviy olamini tadqiq etishga, ko'ngil manzaralarini jimjimador bo'yoqlarsiz, samimiy va tabiiy holda tasvirlashga intilganlar. Chunki har bir asari jamiyat taraqqiyotiga, inson kamoloti rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shilsagina badiiy mukammal asarlar qatoridan joy olishi mumkin.

Jahon adabiyotida bo'lgani kabi o'zbek adabiyotida ham chinakam iste'dodli qalam sohiblari, hasos yozuvchilar barcha davr va zamonlarda inson qalbidagi ezguliklarni, yovuzlik ustidan adalotni g'alaba qilishini kuylashga intilgan. Bunday yozuvchilarimizning badiiy tafakkuri, o'tkir qalamidan yaralgan badiiy durdonalar milliy adabiyotimiz xazinasini boyitib xalqimizning bebaho mulkiga aylanib ulgurdiki, ana shunday yozuvchilar qatoridan Nosir Fozilovning o'rin olishi bejiz emas. Adib bolalar adabiyotida o'z hikoyalari va qissalari bilan, bu janrlarning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'sha olgan ijodkorlardan biridir.

Qozoq olimi, yozuvchisi Abdulla Tojiboyev adib ijodi haqida so'z yuritganda quyidagi tushunchalarni ilgari suradi: "Nosirning qissalari ko'ngillarimizning allaqaerida mudragan bolalik xotiralarimizni uyg'otadi. Ko'ksimizga muzdek adir salqinini olib kelgandek bo'ladi. Yonbag'irlarda sudralgan poda ovozini eshitgandek, shu poda orqasidan ko'tarilgan chang to'zonlarni ko'rgandek bo'lasiz. Guvala devor orqasidagi tandirdan ko'tarilgan ko'm-ko'k tutun bilan yangi yopilgan nonning omuxta hidi dimoqlaringizni qitiqlaydi. Yag'rinini oftob kuydirgan o'roqchining bug'doyzor o'rtasida qaddini g'oz tutib, qumg'ondan yaxna simirayotganini ko'rib siz ham tamshanasiz. Urush davri birdan ulg'aytirib qo'ygan qishloq bolas-

ining o‘ziga yopishib tushmagan salmoqli gaplarini eshitasiz, beixtiyor yuzingizga tabassum yuguradi”[1]. Atoqli yozuvchi va filologiya fanlari doktori A.Tojiboyev tomonidan aytilayotgan bu e’tiroflar bejiz emas, uning qarashlarida ijodkorning asarlariga berilgan haqiqiy mohiyat mavjud. Ularning mohiyatida yozuvchi bilgan, sinagan katta hayotiy asos mavjudligini anglash, his etish mumkin. Nosir Fozilov ijodining ko‘plab qismida o‘z bolaligida boshdan kechirgan urush va urushdan keyingi davr hayoti, o‘ziga zamondosh bo‘lgan odamlar hayoti oborazli tarzda yoritib berildi.

Asarlarining aksar qismida, jumladan “Qorxat”, “Shum bolaning nabiralari”, “Saraton”, “Tashvish”, “Qush qanoti bilan” kabi qissalarida, “Tosh”, “Tanishuv”, “Kitob”, “Tushovli toy” kabi hikoyalarida ham o‘tan asrning ikkinchi yarmidagi urush davrida, front ortidagi xalqning mashaqqatli turmush tarzi haqqoniy tasvirlanadi. Shu davrda yashagan insonlarning ruhiy holati, hayotga bo‘lgan intilishlari, bu qissaslarda yaratilgan o‘smir yoshdagi bolalarning tirishqoqligiyu juvonmardliklari yosh o‘quvchilarning diqqat e’tiborini tortadi.

Adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov qayd qilganidek: “Odam bolasi o‘z kamchiliklari, xatolari, nuqsonlari, adashishlari, yomonliklari, yaxshiliklarining azobi ichida yashaydi. Azalda mavjud bo‘lgan nuqsonlar, yovuzliklar qnchadan qancha ulug‘ dinlar, e’tiqodlar, aql va tafakkur o‘yinlariga qaramasdan hozirgacha ham davom etib keladi”.[2]

Takidlanganidek, adibning qarashlariga hamohanglik mavjud, chunki Nosir Fozilov asarlarida insonni anglash, bolalarga xos tafakkur tarzidagi qahramonlarining turli xarakteri yaratilar ekan, uning asosida hayotiylik, uning murakkab va mahaqqatli jihatlari ham o‘rin olishiga imkon bergan. Yozuvchining “Qorxat” qissasida bolalarga xos orzular, o‘yu mushohadalar zamirida shakllana boshlagan xarakterni kuzatsak, “Shum bolaning nabiralari”da esa, umuman, juda sho‘x, shu bilan birgalikda tarbiyasi anchagina buzila boshlagan bola xarakterini voqealar silsilasiga singdirib yuborgan.

Umuman olganda, badiiy adabiyotda yozuvchining mahoratiga baho beradigan bir qancha omillar mavjud bo‘lib, ular orasida adibning obrazli fikrlashi hamda dunyoni qanday ko‘z bilan ko‘rishi, obraz yaratish mahorati alohida ahamiyat kasb etadi. Ijodkorning yaratgan asarlarida obrazlilik qanchalik chuqur bo‘lsa, ularning badiiy qiymati ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Chunki har qanday obraz yaratishda yozuvchi o‘zining borliqqa bo‘lgan hissiy munosabatini ham namoyon etadi.

Shu jihatdan, Nosir Fozilovning “Shum bolaning nabiralari” qissasiga yana bir nazar tashlaylik: “Anvar payqamagan ekan. Oyisi orqasiga o‘qlog‘ini yashirib turgan ekan, boshiga shartta tushib qoldi. Yaxshi hamki, boshida quloqchini bor. Bo‘lmasa… Bir pas angrayib o‘zini yo‘qotib turdi-da, o‘qlog‘i ikkinchi bor ko‘tarilganda, ura qochib qoldi. Qasdiga olib eshikning ilgagi ham ochilmay qoldi. Qarasa, oyisi orqasidan quvib kelayabdi. Bunaqa bo‘lishini bilganda boya eshikni ochiq qoldirardi-ya! Endi u hovlini aylanib qocha boshladi”.[3]

Tasvirlardan anglashiladi, bolalarga xos xislatlar, ularning xarakter ruhiyatiga hamohang fazilatlar, u ijobiy yoki salbiy bo‘lishidan qat’iy nazar, hayotiy voqealar silsilasida yoritiladi. Bularning barchasida o‘ziga xos bolalarcha beg‘uborlik, quvlik mujassam edi.

Adabiyotshunos Sanjar Sodiq qayd qilganidek: “O‘zbekiston mustaqillik davriga qadam qo‘yganidan keyin tanqid va adabiyotshunosligimizda deyarli butun adabiyot tarixini, alohida yozuvchilar ijodini yoki ayrim asarlar mohioyatini, qadr-qiymatini, badiiy taraqqiyotda tutgan o‘rnini qayta idrok etish, yangicha talqin qilish jarayoni boshlandi. Hayotda keskin o‘zgarishlar yuz bergan chog‘larda bunday jarayonlarning sodir bo‘lishi, takrorlanib turishi va ko‘pincha, ijobiy samaralarga olib kelishi qonuniy hodisa ekanligi adabiyot tarixida qayta-qayta isbotlangan”ligini alohida ta’kidlab o‘tgan edi.[4]

Darhaqiqat, badiiyat qonuniyatlaridag o‘zgarishlarni emas, ijodkorning davrga xos obrazlar olamini yaratishga bo‘lgan ilinjini nazarda tutishdan tashqari, har qanday badiiy asarning mohiyati, insonni anglashga bo‘lgan ehtiyojning yuzaga kelishi bilan izohlanmoqda. Shuning uchun badiiy asarlarga qayta murojaat etish uning yangi-yangi qirralarini kashf etish imkonini kengaytirashi bilan birgalikda, asarlarning mohiyatini bugungi kun nuqtaiy nazardan tahlil etish imkonini ham kengaytiradi.

Chunki zamondosh obraznining badiiy ifodasida har bir davrga xos fazilatlar, xarakterlar ifodasi etakchilik qiladi. Bu talqinlarning etakchi tamoyillari, G‘fur G‘ulomning “Shum bola” yoki Xudoyberdi To‘xtaboboyevning “Sariq devni minib” kabi asarlarda ham kuzatish mumkin. Bolalarga xos quvlik, turli qiziqishlarning ayanchli voqealarga uzviy bog‘lanib ketish holatlari bilan qiyoslash ham mumkin.

Adibning bunday hissiy munosabati singdirilgan asar badiiylik mezonlarining nozik talablariga javob beradi hamda asarni o‘qigan o‘qirmanning tushinishi va yurakdan his qilishida muhim omil sanaladi. Ad-

[1] Носир Фозилов замондошлари хотирасида. – Тошкент, “Машҳур прес”, 2019. – Б. 23-24.
[2] Ғафуров И. Мангу латофат. Бадиалар, рисолалар. 2-китоб. – Тошкент, Шарқ, 2008. 356 бет.
[3] Носир Фозилов замондошлари хотирасида. – Тошкент, “Машҳур прес”, 2019. 68 бет.
[4] Содиқ С. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. Адабий-танқидий мақолалар. –Тошкент, Шарқ, 2005.194 бет.

abiyotshunoslikda “obraz” atamasi ikki xil - keng va tor ma’noda ishlatiladi. Keng manoda, badiiy obraz deganda borliqdagi san’atkor tomonidan ko‘rib, his qilinib ijodiy qayta ishlanganhar qanday poetik narsa-hodisa, unsur tushunilsa, tor ma’noda badiiy asarda yaratilgan inson nazarda tutiladi”.[1] Shuni ham aytish kerakki, badiiy asar qahramoni haqida gap ketganda uning individual xarakter xususiyatlarni belgilashda badiiy nutqi bilan ajralmas munosabat borligi barchaga ma’lum bo‘lsa-da, ko‘pgina ijodkorlar undagi ohangdorlikka ba’zan e’tibor berishavermaydi. Adibning qissa va hikoyalarida qahramonlarning qiyin vaziyatlarga tushib qolganda o‘zini tuta bilishi, har qanday qiyinchiliklarni matonat bilan engib o‘tib nurli manzillarga intilishi, ezgulikka sadoqat tasviri orqali ma’naviy axloqiy jihatdan hayotiy xulosalarga kelishi yozuvchi asarlarini tutashtirib turuvchi muhim nuqta sanaladi.

Yozuvchining har bir yaratgan hikoya va qissalarida bolalik va o‘smirlikning beg‘ubor dunyosi xalq tarixi va taqdiri bilan bog‘liq muhim muammolarning badiiy ifodasi sifatida niyati sof bo‘lgan murg‘ak qalblardan mustahkam o‘rin egallagan. Adib yaratgan o‘nlab kurashchan qahramonlar bolalarning o‘ziga yaqin ko‘rgan maslahatgo‘yi va maslakdoshiga aylangan. Bizga ma’lumki, kattalar ishtirok etgan xar qanday asar kattalarniki bo‘lavermaganday, bolalarga atab yozilgan asarlar xam faqatgina bolalarga tegishli degani emas, adib asarlarida kattalar va bolalar hayoti chambarchas bog‘langan tarzda ifoda etiladi. Tarixdan bizga ma’lumki, har bir davr o‘zining turli voqealarga boyligi bilan ajralib turadi. Nosir Fozilov asarlarida ham asosan o‘zi ko‘rgan va guvohi bo‘lgan davrni va shu davr insonlarining ruhiyati, qalb kechinmalari hamda iztirobli onlari-yu quvonchli damlarini xaqiqiy real voqealar zamirida badiiylashtirish an’anasi etakchilik qiladi.

Shuning uchun ham atoqli adib, Odil Yoqubov o‘z zamondoshi haqida shunday yozadi: “Nosir Fozilovning bolalaik chog‘lari og‘ir urush yillariga to‘g‘ri kelgan. U o‘z qahramonlari Haydar va G‘anisherlar kabi dashtda bug‘doy ekib, mashoq tergan, “eshak karvon” tuzib, davlat omborlariga bug‘doy tashigan. Shuning uchun ham uning hikoya va qissalaridan o‘sha davrning otashin nafasi, dasht oftobining harorati keladi, urushga ketgan otalarini sog‘ingan bolalarning mayus qarashlari ko‘z oldingizdan ketmaydi, ularning iztiroblari sizni ham iztirobga soladi, sizni ham hayojonlantiradi, entiktiradi”.[2]

Adib talqinlaridagi hayotiylik, bolalikdagi xotiralar, yozuvchi Odil Yoqubov ta’kidlaganidek, o‘sha og‘ir yillarning mashaqqatini tatigan, tabiatning go‘zalligidan ba’zan bahra olgan shxslar qismatini, xarakterini yoritishni maqsad qilib olgan. Hikoya va qissallarida tabiiylik, hayotiylik, estetik idrokning kuchliligi ham shunday tasvirlarga singidirib yuborilganligini alohida qayd etish lozim. Ona-Vatanga muhabbatni, tabiatning go‘zalliklariga shydo bo‘lishni, barchasi o‘z hayotining ma’lum bir davriga borib bog‘lanadi. Uning asarlaridagi jozibadorlik, qarashlarning mohiyatidagi estetik kotegoriyalarning ifoda shakllari ana shundan dalolatdir. Adib qaysiki, janrda ijod qilmasin ob`ektiv borliqqa, hoyotiy voqealalar silsilasiga murojaat etishi sezilib turadiki, bu esa asarlaridagi hayotbaxsh talqinlarni, bolalarga xos fazilatlani yuksak daraja talqin etilishiga xizmat qilagan.

Ise’dodli adib Odil Yoqubov yuqoridagi fikrimizning isboti tariqasida quyidagilarni keltirib o‘tadi: “Nosirning asarlarida Turkiston o‘zbeklarining o‘ziga xos tili, qiyofasi, urf-odatlari juda aniq sezilib turadikim, bu ham qo‘lingizdagi kitobning fazilatiga fazilat qo‘shadi. Nosir Fozilov badiiy ijodning eng qiyin sirlaridan biri - bitta-ikkita ibora bilan manzara yarata olish sirini biladi. “Haydar ikkalamiz ikki eshakda shahardan qishloqqa qaytib ketayapmiz. Quyosh tikka ko‘tarilib qolgan. Javzo. Ko‘lankalarimiz issiqqa dosh berolmaganday borgan sari bag‘rimizga tiqiladi... Eshaklar arava izi o‘yib tashlagan chuqur yo‘lda sap-sariq moy tuproqni bir maromda tap-tup bosib, yalqovgina qadam tashlaydi. Yo‘l chetidagi shuvoq va yantoqlarning changdan rangi bilinmaydi, saratonda sarg‘ayib zang bosgan simday qovjirab qolgan...” Bunday ravon chizilgan yorqin tasvirlar, ko‘z oldingizga “lop” etib keladigan tiniq manzaralar kitobda kirgan har bir hikoya va qissada bor”[3].

Nosir Fozilov asarlarining mazmuni, pafosi hamda ohangining xilma xilligi diqqatga sazovordir. Uning “Saraton” qissasida To‘ra bilan Kamolaning ilk muhabbat romantikasi orqali urush yillarining og‘ir va murakkab davri, insonlar qismatining fojialarini hamda xalq jasoratining turli qirralarini kashf etadi. “Saraton” qissasi harbiy mavzuda bo‘lib, front ichkarisidagi kishilar hayotini, maqsad va intilishlarini, qiyinchiliklarni, yo‘qchiliklarni juda asosli anglagan holda, hoyotiylikdan badiiylikka ifodlash jarayoni kuzatiladi. Adibning “Qush qanoti bilan” qissasida shaxsga sig‘inish davrining achinarli oqibatlari qalamga olinadi. Bu qissada atoqli o‘zbek farzandi To‘xtasin Jalolov qismati hikoya qilinadi. Albatta, bu hikoyada nasriy asarlarga xos kuchli dramatizm

[1] Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1980. – Б. 44.

[2] Ёқубов О. Болалик адиб қаламида. Қаранг: Ғира-шира шомдан оппоқ тонггача. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 30-31.

[3] Ёқубов О. Болалик адиб қаламида. Қаранг: Ғира-шира шомдан оппоқ тонггача. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 31.

va publitsistik ruhning uyg‘unligi kuzatiladi. Yozuvchi asarlarida badiiy tasvirga quyuq sayqal beradi, har bir so‘zni o‘rni-o‘rnida ishlatadi, maqsadni aniq ko‘rsatadi, persanajlar nutqi o‘z hatti harakatlariga mos tarzda ifodalanadi.

Adib asarlaridagi bir lavha yoki talqin, voqea va hodisalar bir-birini takrorlamaydi. Eng asosiysi, yozuvchining asar qahramonlarining, har bir personajning odamlarga aytadigan muhim gapi, o‘zining mustaqil so‘zi borligini kuzatish mumkin. “Yozuvchi asar qahramonlari boshdan kechirgan sarguzashtlarini shunchaki kichik kitobxonlarning ruhiyatiga mos qiziqarlilik talabi bilangina qalamga olmaydi, balki o‘sha qiziqarlilik zaminida kichik kitobxonga aytish zarur deb o‘ylagan, natijada ma’naviy axloqiy muammoga diqqatini qaratadi. Muallif nutqidagi serjilo badiiy bo‘yoqdor iboralar, kishini chuqur mulohazalarga chorlovchi tagdor qochirmalar adabiy qahramonlar nutqidagi individuallik bilan uyg‘un ravishda adib asarlarining o‘qishliligiga xizmat qiladi”[1]. Nosir Fozilov kichkintoylar adabiyotida yaratgan asarlari bilan o‘zbek bolalar adabiyotida o‘zining mustahkam o‘rniga ega. Adibning asarlarini kuzatadigan bo‘lsak albatta har bir hikoyalarida inosonni kamolga etkazuvchi maskan bo‘lmish maktab hayoti tasvirini va asar qahramonlarining o‘qishga bo‘lgan da’vati ko‘rinishlarini kuzatishimiz mumkin.

Adibning “Poliz oqshomi” hikoyasini oladigan bo‘lsak bu erda bir muxbir yigit dalada poliz maydoniga borishi xamda Hoji bobo bilan o‘rtasida bo‘lib o‘tgan dialogi o‘quvchi e’tiborini tortadi. Hikoyada qahramonlarning xatti-harakatida tabiiylik ko‘zga tashlanadi. Hikoyani o‘qir ekansiz, tabiatning shirin nafasini his qilgandek bo‘lasiz. Asardagi asosiy qahramonlargina emas, hatto epizodik personajlar ham xotirangizda qoladi. Chunki detallar orqali uning xarakteridagi o‘ziga xos jihatlar oydinlashtiriladi.

Yozuvchi inson va tabiat munosabati, umuman inson va tabiat taqdiri mushtarak ekanligini badiiy yo‘sinda talqin etadi. “Bahor... Mayin shabada g‘ir-g‘ir esadi, sochlarimni yulqilaydi. Shaharda sal yalang yursang bas, shamollab qolasan, degan aqida bor. Men buni tamoman unutdim. Galstugimni bo‘shatib, ko‘krak tugmalarimni echib, to‘yib-to‘yib nafas ola boshladim. Negadir qichqirgim, ko‘kragimni shamolga tutib huv anavi tepaliklar osha chopgim kelib ketdi...Tepa ustida tayog‘iga suyanib podachi turibdi. Bolalar xotin-halaj sigirlarini o‘sha yoqqa qarab haydab ketishayapdi. Erga go‘yo guldor gilam to‘shab qo‘yilgan deysiz. Ko‘m-ko‘k maysa shudring qo‘ngan mayin barglari bilan oyoqlaringni yalaydi. Chuchmomalar gullagan, uzoq-uzoqlardagi to‘p-to‘p qizil lolalar nazaringni tordadi...”[2]

Tasvirlardan ko‘rinib turibdiki, yozuvchi asarlarida tabiat va inson taqdiri mushtarakligining yangi bir qirrasini kashf etmoqda. SHu asosda turfa fe’l atvorli yangi obrazlar yaratadi. Ya’ni inson qalbiga yangi tomondan nazar tashlaydi. Inson va tabiat munosabati bahonasida muallif insondagi tabiiy tuyg‘ularning sehrli kuchini ulug‘laydi, inson qalbini asrash avaylash haqida o‘y suradi, har qanday soxtalikka hayosizlikka qarshi isyon ko‘taradi. Insonning inson va tabiat oldidagi burchi nimada ekanligi masalasini ilgari suradi.

Asarlari bolalar orasida ham, kattalar orasida ham sevib o‘qiladigaan yozuvchi Nosir Fozilovni serqirra ijodkor desak fikrimizda aslo mubolag‘a sezilmaydi, chunki adibning bolalarga bag‘ishlab yozilgan hikoyalari o‘zbek bolalar adabiyotining muhim bir bo‘lagi sifatida e’tirof etilmoqda. Yozuvchining birinchi to‘plami “Irmoq” 1959 yilda nashr etildi. So‘ngra “Oqim”, “Qush qanoti bilan”, “Qorxat”, “Qo‘klam qissalari”, “Saraton”, “Tashvish”, “Robinzonlar”, “Diydor”, “Tanlangan asarlar” ikki jildligi, “Bolaligim-podsholigim”, “Shum bolaning nabiralari” kabi bir qator hikoya va qissalari dunyo yuzini ko‘rdi.

Adib hikoyalarida urush davrida xalq hayotining og‘ir kechmishi qalamga olinadi. Uning “Saraton” qissasi ijodidagi alohida sahifani tashkil etadi. Asardagi bosh qahramonlar hisoblanmish To‘ra bilan Kamolalar yozuvchining bolalikdagi tengdoshlaridir. Bu ikki qahramonning xalq mushkulini engil qilish va ezgulik uchun kurashishlari, el yurt tinchligi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishlari jihatidan adibning boshqa asarlaridagi qahramonlarga o‘xshash jihatlari mavjud.

Qishlog‘idan kattalar frontga ketgach To‘ra cho‘ponlik qilib poda boqadi. Uning poda ketidan chang yutib sargardon yurishiga urush sababchi albatta. Kolxozning cho‘poni bo‘lmish G‘iyos akaning urushga chaqirilishi, eridan qora xat kelgach alamini kimdan olishni bilmay zahar zaqum yutib yurgan Zulayho xola suzmasini o‘g‘irlamoqchi bo‘lgan Franteshkoni kaltaklamoqchi bo‘ladi. To‘ra, Kamola bilan birgalikda bolani himoya qilib ancha gap so‘z orttirishi tasviridan so‘ng qahramonlarning odatdagi hayot tarzi o‘zgaradi. Bunday o‘zgarish faqatgina tashqi tomondan bo‘lmay, ayni paytda ularning ma’naviy olami, ichki dunyosi va ruhiyatida ham sodir bo‘ladi. Adibning yozuvchilik mahorati o‘quvchini asar qahramonlarining xarakter xarakatlariga to‘liq ishontirishida ko‘zga tashlanadi. Nosir Fozilov ijodi yutug‘ini ta’minlagan yana bir qirrasi shundaki uning

[1] Матжонов С. Холис нигоҳ, самимий тасвир. Qarang: Ғира-шира шомдан оппоқ тонггача. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 17.

[2] Фозилов Н. Сайланма. 1–жилд. – Тошкент: Ғофур Ғулом нашриёти, 1982. – Б. 109.

so‘zga qahhorona hassoslik bilan yondashishidir. Adib shunday eslaydi: “Saraton”dagi bola o‘zimman. Asardagi muhabbat ham mening birinchi muhabbatim. O‘sha xirmondagi voqealar ham o‘zimniki. Asardagi Kamola bilan gaplashgan ham o‘zim. Men urush farzandiman, ayni Vatan urushi boshlanganida 12 yoshda edim. O‘sha urush yillaridagi ko‘rgan kechirganlarim harakterimga obdon singib ketgan. Shu yoshda g‘o‘za oralab suv sug‘organman, xirmon sovurganman. Shuning uchun tengqurlarimdan uch yil keyin dorilfununga o‘qishga kirganman”[1].

Yozuvchi hikoyalarida syujet qiziqarli tarzda kechadi. Bu hikoyalarda qahramonlar hayotidagi murakkab vaziyatlar mahorat bilan tasvirlanadi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki Nosir Fozilovning ko‘plab asarlari jumladan “Qush qanoti bilan”, “Qorxat” qissalari qahramoni tilidan hikoya qilinadi. “Qush qanoti bilian” qissasida bosh qahramon Sarvar tilidan voqealar hikoya qilinsa, “Qorxat” qissasi esa Sog‘indiq tilidan chiroyli tarzda tasvir qilinadi. Sog‘indiqni do‘sti Asetni uyiga borishi, Aset bilan birgalikda boshidan kechirgan sarguzashtlari, qor xatda yutqazib miltiq bilan ovga chiqishi, daryodan baliq ovlaganlari yosh o‘quvchini asarga nisbatan qiziqishini orttiradi.

Yozuvchi ikki millat bolalarini dustlik rishtalarini va bir birlariga bo‘lgan sadoqatini ko‘rsatib beradi, bolalarni topqir, chidamli , bilimli bo‘lishga da’vat etadi. Adibning “Tashvish” qissasida bosh qahramon Safaralining ulug‘ Vatan urushi bilan bog‘liq xotiralari haqida so‘z boradi. Qissaning tashvish deb nomlanishi xam bejiz emas, unda Safaralining boshiga tushgan tashvishlari, o‘tmish hayotidan qizi borligini bilishi, do‘stidan borib maslahat so‘rashi, asar so‘ngida sevgan yori Muhabbatdan o‘g‘il ko‘rishi mahorat bilan tasvirlangan. “Oqim” qissasida esa eski bir tizimning tugashi va yangi tizim shakllanish jarayonlari, bu o‘zgarishlarga odamlarning munosabati ko‘rsatiladi.

Qissada Suyum og‘aning taqdiri, uning haqgo‘yligi, baxt izlab sargardon bo‘lishi, shoirlikka moil va ilmga intiluvchan qalbining parchalanishi va nihoyat izlaganlariga erisholmay o‘ldirilishi, uning farzandlari Ziyobek va Kenjaning mashshaqqatli hayoti, tuhmat bilan Asqar akaning qamalishi, boyning quli bo‘lgan Musoning sevgilisi Hurini olib qochishi, dushmanlar tomonidan Sparif yacheykaning pichoqlanishi va shu bilan bog‘liq turli voqealar hamda taqdilar tasvirlanadi.

Shunisi qiziqarliki adib adabiyotimizdan yiroq bo‘lgan mavzu ammo juda muhim bo‘lgan o‘smirlarning katta dunyo sari qadam qo‘yishlari, o‘zlarining hayotda mustahkam o‘rnini topishlari, inson hayotini bezovchi tuyg‘u bo‘lmish muhabbat, sevgi hissiyotini ilhom bilan tasvirlaydi.

“Saraton” qissasida To‘ra bilan Kamola, “Oqim” qissasidagi Huri va Musolar siyratida ajoyib muhabbat romantikasini yaratadi. Bu yoshlar sevgisini jozibadorligi bilan kishini hayratga soladi. Adibning mahorati shuki asarlarida o‘smirlarning qalbida nimalar kechayotganiyu hyotida ro‘y berayotgan voqealarni real holatda tasvirlaydi. Nosir Fozilov yaratgan har bir yangi asarlari bilan ijodiy parvoz ufqlarini kengaytirib bordi. U portret yaratishning yangi uslublarini izlab topdi, kashf etdi.

Qahramonlarning bir-biriga, o‘z-o‘ziga qiyoslab chizilgan ajoyib portret namunalarini yaratdi. Adib obrazlarning tashqi qiyofasi bilan ichki dunyosini uyg‘un tasvirlash bilan birga tashqi ko‘rinish zohiriy olam hamisha ham insonni ma’naviy olamiga mos kelavermasligini isbotlovchi xarakterli qiyofalarni kitobxon ko‘z oldida gavdalantira oldi. Adib asarlarida qahramonlarning tashqi qiyofasi ichki qiyofasiga ya’ni surati siyratiga mos qilib yaratilishi chiroylini chiroyli, xunukni xunuk qilib ko‘rsatilishi diqqatga sazovordir.

Misol tariqasida asarlarida ijobiy obrazlar Akmal, Sarvar, To‘ra, Kamola, Huri va Musolarni keltirsak, salbiy obrazlarga Izzatilla, Haydarboy, To‘lbosh, Javlonbeklarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Bu obrazlarni yaratishda adibning yuksak mahorat sohibi ekanligi yaqqol sezilib turadi. Nosir Fozilovning ba’zi qissalarini oriyat deb atalmish umumiy ruh birlashtirib turadi.

Adibning tom ma’noda mukammallashib ulgurgan badiiy mahorati, tug‘ma iste’dodi esa ana shu umumiy ruhdan kelib chiqib turfa qiyofali ammo oriyat deb atalmish ulug‘ bir fazilat birlashtirib turuvchi obrazlar yaratishda inson ruhiy olamining, ichki dunyosining ming bir manzarasini har gal o‘zgacha ohangda tasvirlashga imkon beradi.

Fikrimiz misoli tariqasida “Qor xat” qissasidagi Sog‘indiq obrazini olishimiz mumkin. Yosh bo‘lishiga qaramasdan o‘zining jamoasiga fahriy a’zo qilib o‘sha davr qahramoni Qalli otani oldiga borishi, bir necha bor uchrashsada o‘zining maqsadini aytaolmasligi va o‘z vataniga bo‘yniga olgan vazifani bajara olmay qaytishini o‘ylab bunga oriyati yo‘l qo‘ymay qancha qiyinchiliklarni engib maqsadiga erishishi qissaning syujetini yanada qiziqarli qilib ko‘rsatadi.

Yozuvchining qissalari va hikoyalari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, yozuvchining o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan voqealarni, ayniqsa, quyma aniqlik bilan tasvirlay olganligining guvohi bo‘lamiz. Bunday o‘rinlarda yozuvchi uslubida tadqiq etilayotgan ob’ektdagi har bir detal, nur ranglar jilosini aniq ko‘rib, his eta olgan va uni o‘ziga hos bo‘yoqlar bilan gavdalantirgan hasos yozuvchi qalamini ko‘ramiz.

Adib davr hodisalarini hech qachon passiv kuza-

[1] Фозилов Н. Ношир ва носир сўзи. – Тошкент, Ўзбекистон, 2015. – Б. 18.

tuvchi sifatida aks ettirmaydi, balki ularga yangi hayotning faol kurashchilari ma'nosidagi nuqtai nazar bilan qaraydi. Shuning uchun xam u go'zal hodisalarni yanada go'zalroq, hunuk xodisalarni aslidan ham hunukroq qilib ko'rsatadi. Xuddi shu yo'l bilan eskilikning payini qirqishga, yangilikning rivoj topishiga ko'mak berishga intiladi.

Umumiy qilib aytganda, Nosir Fozilov asarlarida kundalik hayot hodisalari imkoniyat darajasida oxirgi nuqtaga qadar keskinlashtirilib, qabartirib beriladi, aynan shu keskinlashtirish va qabartirish oqibatida u tasvir etgan kundalik hayot ikir chikirlaridan yuksaklikka ko'tariladi, ya'ni oddiy hayotiy haqiqatlar kuchli badiiy talqin topadi va bir-biri bilan uyg'unlashgan holda kitobxon qalbiga yo'l topadi.

Rezyumi. Ushbu maqolada taniqli yozuvchisi Nosir Fozilovning bolalarga atab yozilgan qissa va hikoyalari badiiy jihatdan tahlilga tortilgan. Adib asarlarida davr va shaxs kotsepsiyasi asosida qahramonlar harakteri ochib berilgan. Asarladagi bolalarga hos bo'lgan xususiyatlar makon va zamon negizida oydinlashtirilib turli misollar asosida dallilangan.

Resume. This article analyzes the stories and tales written for children by the famous writer Nasir Fazilov from an artistic perspective. The writer's works reveal the characters of the characters based on the concept of the era and the person. The characteristics of children in the works are clarified on the basis of space and time and are substantiated with various examples.

Резюме. В данной статье с художественной точки зрения анализируются детские рассказы и сказки известного писателя Насира Фазилова. В произведениях писателя раскрываются характеры персонажей с учетом концепции эпохи и личности. Характеристики детей в произведениях уточняются на основе пространственно-временного контекста и подкрепляются различными примерами.